

## YUSUF XOS HOJIBNING BOSHQARUV SAN‘ATI VA RAHBARLIK TANLOVI HAQIDAGI AXLOQIY O‘GITLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7820645>

**Maratova Nilufar Laziz qizi**

*O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti talabasi*

### **Annotatsiya.**

*Ushbu maqolada rahbar shaxsni davlat siyosatida tutgan o‘rni va jamiyatda adolatli siyosat yuritishi. Rahbarning omma oldida qanday tartibda nutq so‘zlashi. Yusuf Xos Hojibning rahbarlik asosidagi qarashlari va bularning hozirgi zamonda tutgan o‘rni haqida so‘z boradi.*

### **Kalit so‘zlar.**

*Nutq go‘zalligi, rahbar, notiqlik, jamiyat, madaniyat, san‘at, bilim, tarbiya, axloq.*

### **Аннотация.**

*В данной статье рассматривается роль лидера в государственной политике и проведении справедливой политики в обществе. Каков порядок выступления лидера перед публикой. Обсуждаются взгляды Юсуфа Хос Хаджиба на лидерство и их роль в современности.*

### **Ключевые слова.**

*Красота речи, вождь, красноречие, общество, культура, искусство, знание, образование, нравственность.*

### **Abstract.**

*In this article, the role of a leader in state policy and the conduct of fair policy in society. What is the order of the leader's speech in front of the public. Yusuf Khos Hajib's views on leadership and their role in modern times are discussed.*

### **Key words.**

*Beauty of speech, leader, eloquence, society, culture, art, knowledge, education, morality.*

O‘z davrining mashhur kishisi bo‘lgan Yusuf Xos Hojib XI asrda Bolosog‘un shahrida yashab o‘tgan. Unin eng mashhur asarlaridan biri “Qutadg‘u bilig asaridir. ”Qutadg‘u bilig “Qutga, ya‘ni baxt-saodatga erishtiruvchi bilim demakdir. Uni bobokalan shoirimiz Yusuf Xos Hojib bundan 920 yil oldin → 1069 yilda yozgan [1:5].

Bularning barchasi Yusuf Xos Hojib ijodining g'oyaviy-badiiy ildizlari hayotbaxsh chashma-xalq daxosining so'nmas ijodi bilan nihoyatda zich aloqadorligini yana bir marta ta'kidlab turadi. "Qutadg'u bilig" hozir jahonning ko'plab xalqlari tillarida jaranglamoqda. Bu asar o'zbek, qozoq, uyg'ur, qirg'iz va boshqa tillarga tabdil qilingan. Yevropaning bir qancha tillariga tarjimalari mavjud.

Yevropa aslida bu asar bilan XIX asrning birinchi choragidayoq tanishib ulgurgan edi. Hozir asarning nemis va ingliz tillariga toliq tarjimasi bor. "Qutadg'u bilig O'zbekistonda to'liq holda 1971 yilda nashr etilgan" Qutadg'u bilig sahifalarini varaqlar ekanmiz, goh moziyning ko'z ilg'amas sarhadlariga, goh Yusuf xos Hojibning davri ziddiyatlariga, goh turkiylarning qadim bahodir o'g'loni Alp Er Tonga, ulug Firdavsiyning "Shohnoma"si qahramonlari davriga borib qolgandek bo'lamiz. Asarda shoir fikri gozal obrazlar, hayotiy o'xshatish va lo'nda istioralar, ta'sirchan tamsil hamda mo'jaz ramzlar bilan ziynatlangan.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarining asosiy to'rt qahramonlari timsolida o'tgan va hozirgi zamon davlat boshqaruvi haqida, hukmdor qanday bo'lishi haqida juda ko'p hikmatli so'zlar keltirilgan.

"Er kishiga ko'makchi va yordamchilar kerak, zakovatli, bilimli, dono elchilar lozim, barcha ishlarni biladigan yordamchilar kerak, chunki kishi ishni bilib ishlasa, tilakka yetadi. Yordamchi ko'p bo'lsa, bek mashaqqat chekmaydi, barcha ishlari muhayyo bo'ladi, qonun-siyosat buzilmaydi [2:80].

Yusuf Xos Hojib hukmdorning fazilatlarini juda sinchkovlik bilan o'rganib chiqqan. Umrining ko'plab qismini sayohatda o'tkazib ko'plab xalqlarning boshqaruvga doir qarashlarini qunt bilan o'rgangan. Uning ko'plab hukmdorlarga shaxslarga turli darajadagi davlat mansabdorlariga turfa mamlakatlardagi turfa xil madaniy qarashlar uning manaviy falsafiy e'tiqodiy qarashlarini juda boyitdi Yusuf Xos Hojibga bu hayotiy tajriba juda katta yordam berganligini o'zining asarlarida ta'kidlaydi.

"Sen barcha so'zlarni bilim bilan so'zlagin, barcha kishini bilimi uchun ulug'lagin" [3:29].

Rahbar notiqlik mahoratini kaliti-dir. Zakovat bilimning ochqichi ham tildir. Odamni til ulug'laydi, uni baxtiyor qiladi. So'z-qudratli va buyuk vosita hisoblanadi.

"Mana bu jonli misolda yurtdoshimiz uchun nechog'lik aniq-tiniq ifoda etib berganiga guvoh qoldirganlar. Alisher Navoiy "Sab'ai sayyor" dostonida aytadiki:

Buyla bulbul navosi so'z duru bas,

Nag'mai jonfizosi so'z duru bas,

Bo‘lmasa so‘z ajab balo bo‘lg‘ay,  
Bulbuli nutq benavo bo‘lg‘ay [4:32].

Notiq har bir nutqida inson salohiyatini eng faol, eng bunyodkor omil, islohotlarni amalga oshiruvchi, buyuk kelajakni yaratuvchi yetakchi kuch, deb biladi. Shuning uchun yurtboshimiz bunyodkor xalqqa suyanadi, o‘z navbatida xalqimiz unga ishonadi, ergashadi va qo‘llab-quvvatlaydi.

Yusuf Xos Hojib bir hikmatida aytgandek:

“Yaxshi rahbar elni o‘ylar,  
Yomon rahbar hovli bo‘ylar”.

Yaxshi rahbar bo‘lish uchun, avvalombor, o‘z qo‘l ostidagi ishchilari bilan murosa qila olishi kerak. Xodimlarni tushungan rahbar har doim ularning muammolariga albatta yechim topa oladi. Har bir davlatda albatta adolatli shoh, va oqil vazirlar bo‘lishi kerak. Darhaqiqat bizning gozal va mustaqil vatanimizda ham juda mukammal davlat boshqaruvi mavjud.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan madaniyat va san‘atga mustaqillikni mustahkamlovchi bir kuch, xalqimiz, ayniqsa yoshlarda milliy g‘urur, mardlik va jasorat tuyg‘ularini uyg‘otuvchi vosita sifatida yuksak e‘tibor qaratilmoqda.[5:34]

Rahbar shaxs avvalo o‘zini namoyon qila olishi kerak. Shavkat Mirziyoyev o‘zining bir nutqida aytgandek “Rahbar shaxsda tugma qobilyat bolishi kerak.”

Rahbarda quyidagi narsalar bo‘lishi kerak:

- Yaxshi zamonaviy kiyimlar;
- Ozoda soch turmagi va ozoda tashqi ko‘rinish;
- Toza poyabzal.
- Zamonaviy aksessuarlar-portfel, soat, kundalik, asboblari.

“ Barcha ish yumushlar zakovat tufayli bitadi, beklar ham dard-u davlatga bilim orqasidan erishadilar”.

Darhaqiqat, bir ishni boshlashdan oldin uzoq o‘ylash kerak. Shoshqaloqlik bilan uzoqqa borib bo‘lmaydi. Rahbar nutq madaniyatiga e‘tibor qaratishi lozim. So‘zlayotgan gapini tinglovchilar tushinishi kerak.

Rahbar qanchalik oqil, bilimdon, dono bo‘lmasin unga barbir yordamchi kerak.

“ Jam etdi olamning sirlarini,  
Bilimdon, odamning saralarini”.

Kundan kunga mamlakatning ishi og‘irlashib boradi. Eligning ishini mamlakat aholisi qo‘llab-quvvatlaydi:

-Xulq go'zal bo'lsa, barcha xalq sevadi, Xulqi to'g'ri bo'lgan kishi to'rga chiqadi.

-Kambag'al, tul yetimlarning hollaridan xabardor bolib tur, ularni avaylasang, adolat mana shu bo'ladi.

-Yaxshi qiliq oq sut bilan kirsa, olim kelib tutmaguncha o'zgarmaydi.

-Bilimsiz, shubhasiz, aniq ko'rdi, Kel, ey nodon, bilimdan hissa ol.

Zamon shiddati yanada ortib, tarix g'ildiragi nihoyatda tez sur'atlar bilan aylanmoqda. Bugun O'zbekiston jahon nigohida. Davlatimiz rahbarining bevosita tashabbusi va boshchiligi bilan ishlab chiqilgan Harakatlar Strayegiyasi mamlakatimizni rivojlantirishning besh ustuvor yo'nalishida davlat va jamiyat boshqaruvini takomillashtirishga doir tub islohotlarni izchil amalga oshirish, shuningdek, ijtimoiy sohaning asosiy va muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan madaniyat va san'at sohasini boshqarishni yanada mukammallashtirish borasida ham keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish, madaniyat va san'at muassasalarini zamonaviy boshqaruv bilimlariga ega bo'lgan malakali kadrlar bilan ta'minlash shu kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lib, ularni hal etish, bozor iqtisodiyoti sharoitida madaniyat va san'atni boshqarish, ya'ni soha menejerlarini tayyorlash, o'qitish va tarbiyalash O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti zimmasiga yuklangan. Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq o'zbek xalqining milliy-ma'naviy qadriyatlariga tayangan holda jamiyatning madaniyatini oshirishga, uni yanada rivojlantirishga davlatimiz rahbariyati tomonidan katta e'tibor berib kelinmoqda. o'zbek madaniyati va san'atining umuminsoniy mohiyati, ma'naviy-ruhiy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglashning tiklanishi xalq birligining asosiy negizini tashkil etadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Qutadg'u bilig" (So'z boshi muallifi B. To'xliyev; rassom Sh. Muhammadjonova). T: Yulduzcha, 1989. - 192b.

2. Boshqaruv hikmati. T: O.Salimov, Q. Qurbonboyev, M. Bekmurodov, L.Tangriyev. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot -matbaa ijodiy uyi, 2018, - 168b

3. Omon, Baxtiyor. Siyosiy yetakchining notiqlik mahorati. T.: "O'zbekiston", 2000. 96b

4. O'sha manbaa

5. Boshqaruv hikmati. T.: O. Salimov, Q. Qurbonboyev, M. Bekmurodov, L.Tangriyev. → Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018, - 168b